

82  
S-48

O'zbek xalq ertaklari

# SEHRLI SO'Z



Узбекские народные сказки

# ВОЛШЕБНОЕ СЛОВО

Toshkent  
«Navro'z» nashriyoti  
2017





## SEHRLI SO‘Z

**B**ir kuni kichkina toychoq suv ichish maqsadida ko‘l bo‘yiga kelibdi. Suv ichayotganda, oyog‘i sirpanib, suvga tushib ketibdi. Baxtiga, suvda bir xoda oqib ketayotgan ekan, toychoq unga osilib olibdi. Suzishni bilmagani uchun, darhol: “Yordam beringlar, yordam!” –




## ВОЛШЕБНОЕ СЛОВО

Однажды, маленький жеребёнок пришёл к озеру, попить воды. Но, когда пил, он поскользнулся и упал в воду. К счастью, на воде плыло большое бревно, и он схватился за него. Так как он не умел плавать, стал кричать: «Помогите!» Заяц, который гулял поблизости, ус-



deb baqirishni boshlabdi. Shu atrofda yurgan quyonvoy uning ovozini eshitib, tezda yetib kelibdi. Kelishga kelibdiku, lekin suzishni bilmagani uchun, suvga tusha olmabdi. Shunday bo'lsa ham:

– Qo'rqma toychoq, emaklab borib, kuchim bilan tortib, seni suvdan chiqarib olaman – debdi quyon. Quyonning yordam berishini eshitgan toychoq juda xursand bo'libdi. Quyon bor kuchi bilan toychoqni torta boshlabdi, ammo eplay olmabdi. Shu payt, qayerdandir baliq suzib o'tib qolibdi. U toychoqning qiyin ahvolga tushib qolganini va quyonning unga yordam berishga kuchi yetmayot-



лышав его голос, сразу прибежал помочь. Но он тоже не умел плавать, поэтому не смог спуститься в воду. Несмотря на это, он сказал жеребёнку:

– Не бойся, жеребёнок, я подползу к воде и вытащу тебя.

Жеребёнок очень обрадовался услышав это. Заяц стал тянуть его изо всех сил, но не сумел вытащить. В это время, поблизости проплывала рыба. Рыба, увидев, что жеребёнок попал в беду и то, что у зайца не хватает сил помочь ему, тоже поспешила помочь. Заяц и рыба

ganini ko'rib, yordamga shoshilibdi. Quyon bilan baliq rosa harakat qilibdilar, biroq foyda bermabdi. Shunda baliq:

– Men oqqush do'stimni chaqirmasam bo'lmaydi. Bizning kuchimiz yetmayapti – debdi.

– U yordam berarmikan? – deb so'rabdi quyon.

– Albatta, u juda yaxshi do'st. Qiynalغانlarga yordam berishdan charchamaydi. – deb, baliq suzib ketibdi. Birozdan keyin, u oqqush bilan qaytib kelibdi. Shunday qilib, uchala hayvon toychoqni qutqarishga harakat qilibdilar. Lekin uchovlon harakat qilsalar ham, natija chiqmabdi.

Shu payt, ularning tepasidan uchib o'tayotgan



очень постарались, но было безрезультатно. Тогда рыба сказала:

– Мне придётся позвать своего друга лебедя на помощь. У нас не хватит сил.

– А она поможет? – спросил заяц.

– Конечно, он очень хороший друг. Он не устаёт помогать всем тем, кто попадает в затруднительную ситуацию – сказала рыба и поплыла.

Некоторое время спустя, она вернулась с лебедем. Таким образом, трое стали вытаскивать жеребёнка, но опять безуспешно.


qaldirg'och bularning nima qilayotganligini bilish uchun biroz kuzatibdi. Keyin:

– Nima qilayapsizlar, do'stlar? – deb so'rabdi.

Juda charchab holdan toygan quyon, baliq va oqqushga bu savol hech ham yoqmabdi. Qutulishdan umidini uzgan toychoq esa, xorg'in holda:

– Suv ichaman deb kelgan edim. Oyog'im sirpanib suvga tushib ketdim. Bular esa, meni qutqarish uchun harakat qilayaptilar, ammo imkoni bo'lmayapti – deb javob beribdi.

– Albatta, bular uchovlashib ham qutqara olmaydilar – debdi qaldirg'och.



В это время, над ними пролетала ласточка. Она стала наблюдать за ними, чтобы узнать в чём было дело. Потом она спросила:

– Что вы делаете?

Её вопрос не понравился троим уставшим животным. Потерявший надежду на спасение жеребёнок грустно ответил:

– Я пришёл сюда попить воды, но подскользнулся и упал в воду. Они стараются мне помочь, но не могут.

– Ну, конечно, они не смогут, хотя их трое.  
– сказала ласточка.

– Xo'sh, aqlli, qanday qilib qutqarish mumkin ekan? – deb so'rabdi quyon.

– Mening yordamim bilan – debdi qaldirg'och.

– Sen ham biz bilan tortasanmi? – deb kulib javob beribdi oqqush.

– Yo'q, juda muhim bir gap aytaman – debdi qaldirg'och.

– Sehrli gapmi?

– Sehrli so'z bilasanmi? – deb mensimasdan so'rabdi quyon.

– Balki sehlidir, bilmadim. Lekin, sizning o'rtangizda hamjihatlik yo'qligi uchun, bir natija chiqmayapti. Ya'ni, baliq toychoqni suvga tor-



– Так, умница, может ты знаешь, как помочь? – спросил заяц.

– С моей помощью. – ответила ласточка.

– Ты тоже будешь тянуть с нами? – спросила лебедь с ухмылкой.

– Нет, но я скажу вам что-то. – сказала ласточка.

– Волшебное слово?

– Ты знаешь волшебное слово? – спросил заяц с иронией.

– Может быть, волшебное. Я не знаю. Но, я знаю, что из-за того, что между вами нет спло-



tayapti, oqqush esa yuqoriga, quyonvoy esa quruqlikka tortayapti. Kuchingizni uch tomonga sarflayapsiz. Shuning uchun, foydasi bo'lmayapti. Agar kuchingizni bir tomonga yo'naltirsangiz, toychoqni qutqara olasiz – deb uchib ketibdi.

Ular birgalashib toychoqni quruqlikka chiqaribdilar. Hammasi qaldirg'och tomonga qarab “Rahmat” debdilar.

Birdam bo'lish, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish natija berishini anglab yetibdilar.



чѐнности, вы не можете вытащить жеребѐнка из воды. То есть, рыба тянет его в воду, лебедь на небо, и заяц тянет на сушу. Вы расходуете силы в три стороны, поэтому безуспешно. Если вы объединитесь и будете тянуть в одну сторону, вы сможете спасти жеребѐнка. – сказала ласточка и улетела.

Все трое стали тянуть в одну сторону и вытащили жеребѐнка. Они посмотрели в след за ласточкой и поблагодарили её. Они поняли, что действовать сплочѐнно всегда даёт результат.

## **AHMAD VA TEGIRMONCHI**

**В**ир бор екан, бир yo'q екан. Qadim zamonlarda, Ahmad degan bola ota-onasi bilan yashagan ekan. Uning ota-onasi uzoq yillar farzand ko'rmagan ekanlar, oxiri qarigan chog'larida bir o'g'illik bo'libdilar. U bolaga Ahmad deb ism qo'yibdilar. Ahmad aqlli bolib katta bo'libdi. Ahmadning oilasi dehqonchilik bilan shug'ullanar ekan. Bola har kuni maktabga borar, qaytgach esa, do'stlari bilan o'ynar va kech tushmasdan uy vazifalarini qilib qo'yar ekan. Kunlardan bir kuni, Ahmad maktabdan qaytayotib mahallasidagi tegirmonga kirib biroz tomosha qilgisi kelibdi. Te-

## **АХМАД И МЕЛЬНИК**

**Ж**ил был мальчик по имени Ахмад и жил он со своими родителями. У его родителей не было детей долгие годы. Но, когда они состарились, у них родился сын. Они называли его Ахмад. Ахмад вырос умным мальчиком. Семья Ахмада занималась крестьянством. Он каждый день ходил в школу, и после школы играл с друзьями. До вечера он успевал сделать уроки. Однажды, возвращаясь со школы, он решил заглянуть в мельницу, которая находилась на их улице. Когда он стал подсматривать тай-

gironon eshigidan mo'ralab qarab tursa, bir keksa bobo uni ichkariga chaqiribdi. Bu kishi, shu yerda ishlaydigan tegirmonchi Yunus bobo edi. Yunus bobo bolakayni ichkariga chaqirib qo'liga yarimta endigina yopilgan non berib debdi:

– Mana bu senga. Otang ham yaxshimi, sog'-salomatmi?

– Ha, yaxshilar – debdi bola.

Yunus bobo yana o'z ishiga kirishib ketibdi. Keksaligi uchun, ishlashda ancha qiynalar edi. Tez-tez dam olib o'tirar, keyin yana ishga kirishib ketar edi, lekin yuzidan va so'zidan uning charchaganini bilish qiyin edi. Xuddi, mehnatdan zavq olayotgandek tuyular edi. Ba'zan, Ahmadga qarab:



ком во внутрь через дверь мельницы, пожилой человек позвал его зайти. Это был мельник Юнус бобо, который там работал. Старик позвал Ахмада во внутрь и дал ему половину новоиспеченного хлеба, и спросил:

– Это тебе. Как твой отец? Он жив-здоров?

– Да, спасибо – ответил Ахмад.

Юнус бобо стал дальше работать. Ему было трудно работать. Он часто отдыхал, потом опять брался за работу. Но главное, по его лицу и словам трудно было заметить усталости. Как будто, он наслаждался своей работой. Время от времени, он смотрел на Ахмада и говорил:

– Bekorchidan Xudo bezor. Buni unutma! – deb ham qo‘yar edi.

Shu-shu, Ahmad Yunus boboning oldiga tez-tez keladigan bo‘libdi. Maktabdan keyin tegirmonchi boboga yordam berar, supurib tozalab turar, qoplarni ochib unni solishga yordam berar edi. Ayniqsa, boboning hikmatli so‘zlari va o‘z ishini mehr berib, zerikmasdan, siqilmasdan, sabr bilan qilishi juda yoqar edi.

Bir yili, Ahmad yashaydigan qishloqda qurg‘oqchilik bo‘lib, hamma meva va poliz ekinlari qurib, qovjirab ketibdi. Odamlar qishga tayyorgarlik ko‘rish uchun, o‘zlarini har ishga ura boshladilar. Kimdir shaharga ish topgani ketibdi, kimdir



– Бог не любить бездельников. Помни это!

Таким образом, Ахмад стал заглядывать к Юнус бобо очень часто. Он стал помогать мельнику после школы, подметал, убирался и помогал наполнять мешки мукой. Особенно, ему нравились мудрые слова мельника и как он выполняет свою работу, с любовью, терпением и не скучая.

Однажды, в деревню, где жил Ахмад настигла засуха. Все фрукты и овощи погибли. Люди были готовы делать любую работу, чтобы запастись продуктами на зиму. Кто-то поехал в город, а кто-то в дальние деревни, с надеждой

uzoq-uzoq qishloqlarga yo'l olibdi. Ahmadning oilasida ham xuddi shu muammo bor edi. Chunki, ularning ekkan makkajo'xorilari bir qarich holida qurib qolibdi. Bolakayning otasi qarilik chog'ida, yoshlar kabi, shaharga borib ishlashga kuchi yetmas edi. Kunlar o'tibdi, yoz, kuz degandek, qish ham kelib, sovuq tushibdi, hatto biroz bo'lsada, ilk qor yog'ibdi. Bir kuni, kimdir Ahmadlarning eshigini taqillatibdi. Otasi borib ochsa, eshik oldida tegirmonchi Yunus bobo qo'lida bir xaltasi bilan turgan edi.

– Kel, Yunus, ichkariga kir – debdi uy egasi. Ular uyga kirib bir piyola choy ustida suhbatlashishni boshlabdilar.



найти хоть какую-нибудь работу. В семье Ахмада была та же самая проблема. Потому что, кукуруза, которую они посадили, засохла, не вырастив и одну пядь. Отец Ахмада не мог из-за старости поехать в другой город, как молодые. Проходили дни, прошло и лето, и осень. Пришла холодная зима и даже, хоть и немного, выпал первый снег. В один из таких дней, кто-то постучался в дверь семьи Ахмада. Отец открыл дверь и увидел мельника Юнус бобо у дверей, с мешком в руках.

– Заходи, Юнус – пригласил его в дом хозяин.



– Do'stim, senga rahmat. Mana bu, tandirdan yangi uzilgan, nonlar sizlarga. O'g'ling Ahmad yoz bo'yi menga yordam berdi. Bu nonlar shuning evaziga. Ko'rib turganingdek, yoshim o'tib, mehnat qilishim ham ancha qiyin bo'lib qoldi. Juda ko'p shogirdlarni ko'rdim, lekin Ahmadga o'xshaganini uchratmadim. Xudo senga yaxshi farzand beribdi. Juda mehnatsevar bola. Doim yonimga borib yordam berdi. Hatto, ba'zan, o'rtoqlari bilan o'ynamasdan, menga yordam bergan kunlari ham bo'ldi. Men uning harakatlaridan juda ajablandim. Shuning uchun, sendan bir iltimosim bor. Shu o'g'lingni menga shogirdlikka ber. Menga yordam bersin. Ham ishli bo'lib, ro'zg'orga yordamchi



Юнус бобо зашёл в дом, и они стали разговаривать за чаем:

– Друг мой, спасибо тебе. Этот хлеб вам. Твой сын Ахмад всё лето помогал мне. Этот хлеб в благодарность за это. Ты видишь, что я постарел, и мне очень трудно стало работать. У меня было много помощников, но я не встретил такого как Ахмад. Бог дал тебе хорошего сына. Он очень трудолюбивый. Он всегда приходил помогать мне. Даже, были дни, когда он помогал мне вместо того, что играть с друзьями. Я очень удивился его поведением. Поэтому, у меня есть к тебе просьба. Ты отдай своего сына мне в уче-

bo'lad. Eng muhimi, bir kasbni o'rganadi – debdi tegirmonchi Yunus bobo.

Ahmadning otasi tegirmonchi boboning gapiga rozi bo'libdi. Shu kundan boshlab Ahmad yoshligiga qaramasdan, ishli bo'libdi. Ham maktabiga borar, maktabdan keyin tegirmonchi boboga yordamlashib ish o'rganar va har kuni uyiga ikki-uchta non olib kelib, ota-onasini xursand qilar ekan. Shu holda Ahmad yaxshi shogird va yaxshi farzand bo'lib ulg'ayibdi. Ulg'ayib, boy badavlat bo'lib, boshqa odamlarga ham yordam qo'lini cho'zadigan yaxshi inson bo'libdi.

---

ники. Пусть он помогает мне. У него будет и работа, и будет семье помогать, вас радовать. Главное, у него будет ремесло – сказал мельник Юнус бобо отцу Ахмада.

Отец Ахмада согласился просьбе мельника. С того дня, у Ахмада была работа, несмотря на то, что он ещё молодой. Он и в школу ходил, и после школы помогал мельнику и учился его работе. Так же, каждый день он приносил по две-три лепёшки хлеба домой и радовал родителей. Таким образом, Ахмад вырос хорошим учеником и сыном. Повзрослев, он разбогател, стал хорошим человеком и помогал людям.

## SHER, TULKI VA KIYIK

**В**ир кuni, qirol sher betob bo'lib, bir g'orga kirib yotib olibdi. U tulkini juda sevar ekan. Shuning uchun, uni oldiga chaqirib:

– Sen, meni yana tuzalib kuchli bo'lishimni xohlasang, o'rmonda yurgan katta kiyikni oldimga boshlab kel. Men uning jigari va yuragini yemoqchiman. Juda-juda yegim kelayapti – debdi. Tulki bu gaplarni eshitib, darhol kiyikning oldiga chopib ketibdi. U kiyikning oldiga kelib, chiroyli so'zlar so'zlashni boshlabdi:

– Kiyikjon, senga bir xushxabar olib keldim. Men sherning qo'shnisiman. Hozir sher og'ir be-

## ЛЕВ, ЛИСА И ОЛЕНЬ

**О**днажды, король лев заболел и лежал в одной из пещер. Он очень любил лису. Поэтому, он позвал её к себе и сказал:

– Если ты хочешь, чтобы я опять стал на ноги, приведи ко мне большого оленя, который ходить по лесу. Я собираюсь скушать его сердце и печень. Я очень этого хочу.

Услышав это, лиса побежала в лес и стала говорить оленю красивые слова:

– Дорогой олень, у меня есть хорошая новость для тебя. Я живу по соседству со львом.

tob va bu kasalligidan qutulib, tuzalib ketishidan umidini ham uzgan. Endi, qirollikni biror ishonchli hayvonga qoldirib ketay, deb turibdi. Yovvoyi cho'chqani aqlsiz, ayiqni qo'pol, yo'lbarsni beshafqat, qoplonni kibrli deb, qirollikka to'g'ri kelmaydi, demoqda. Qirollikka kiyik juda mos. Bo'yi ham baland, uzoq umr ko'radi. Bo'yi uzunlardan ilonlar ham qo'rqadilar. Gapni cho'zmaylik, qirollikni senga qoldirmoqchi. Tezda javobingni ayt. Ha demay, u meni chaqirib qoladi. Meni har bir ishida maslahatchi qilib olgan. Sen ham men bilan yur. Umrining oxirida u bilan birga bo'l – deb ishontiribdi tulki.

Dunyoda o'zi bilan faxrlanmaydigan kim bor?



Лев очень сильно заболел, и он потерял всю надежду на выздоровление. Теперь, он хочет оставить королевство кому-то доверенному. По его мнению, дикий кабан не разумный, медведь неуклюжий, тигр беспощадный, а леопард высокомерный. Он говорит, что только олень достоин стать новым королём. Он и высок, и живёт долго. Высоких и змеи боятся. Давай не тянуть словами, лев хочет оставить королевство тебе. Ответь немедленно. Он вскоре меня позовёт. Я его личный помощник во всём. Пойдём со мной. Побудь с ним в его последние минуты – уверила его лиса.

O'zi bilan faxrlanadiganlar tez aldanadilar. Kiyik ham, tulkinging gapiga ishonib, uning orqasidan go'rga kelibdi. Sher g'or og'zida poylab turgan ekan. U kiyikka tashlanibdi, ammo ham keksalik, hamda kasalligi sababli, kiyikni ushlay olmabdi. Kiyik, tezda, orqasiga qarab qochib ketibdi. Qu-log'i biroz qonabdi, lekin o'limdan qutulib qolibdi. Tulki "Shuncha harakatlarim bekorga ketdi", deb afsuslanibdi. Sher ham ming afsus va nadomat bilan tulkiga:

– Tulki, tulkijon! Sendan boshqa hech kim eplay olmaydi. U kiyikni yana aldab mening oldimga olib kel. Bu safar seni uyaltirmayman. Bir amallab olib kel – debdi. Tulki:



Есть ли на земле тот, кто не восхищается собой. Таких очень легко обмануть. Олень тоже поверил словам лисы и пошёл за ней в пещеру. Лев ожидал их у пещеры. Он набросился на оленя, но старость и болезнь подвели его, и он не смог поймать его. Олень вырвался и убежал. Его уши немного кровоточили, но он остался жив. Лисе стало жалко, что всё было напрасно. Лев с большим сожалением обратился к лисе:

– Милая лиса, кроме тебя никто не может мне помочь в этом. Приведи оленя ко мне ещё раз. На этот раз я не подведу. Сделай это для меня.




– Osonmi endi uni yana ishontirish, lekin mayli, sen aytganing uchungina, harakat qilib ko'raman – deb o'rmonga kirib ketibdi.

Tulki bir amallab kiyikni topibdi. Uning yoniga borsa, kiyikning tuklari tikka-tikka bo'lib:

– Yana nega kelding? Sen meni yana aldab obor-moqchimisan sherning oldiga? Sen, yaxshisi, tulk-ilingni boshqalarga qilgin. Mening yonimdan yo'qol – debdi.

– To'xta, to'xta, sen shu bechora sherdan qo'rqib qochdingmi? Sen uni noto'g'ri tushunding. Be-chora o'lim to'shagida yotibdi. Sening qulog'ing-ni ushlagan bo'lsa, senga qirollikning biror sirini



– Не будет легко привести его снова. Но я попытаюсь для тебя – ответила лиса и побежала в лес.

Лиса смогла как-то найти оленя. Увидев лису, олень очень разозлился:

– Как ты посмел явиться сюда? Ты опять хочешь меня обмануть? Ты лучше пойди своими хитростями к другим. Уйди прочь от сюда.

– Подожди! Ты испугался этого бедного льва? Ты его не правильно понял. Он лежит при смерти. Если он схватился за твои уши, значит, он хотел сказать что-то важное, относительно

aytmoqchi bo'lgandir. Maxfiy narsalar, albatta, hammaning oldida aytilmaydi, balki quloqqa aytiladi. Sen esa, qulog'imga yopishdi, deb qochib qolding. Sen unday qilma, sendan boshqasi qirol bo'lsa, hech kimga o'rmonda yashashga qo'ymaydi. Shu bechorahol hayvonlarga rahming kelsin. Men bilan birga bor. Qo'rqma, men ham yoningdamanku! Sher nima demoqchi, bir eshitgin, qochib qolmasdan – deb, tulki kiyikni yana aldabdi.

Kiyik yana aldanibdi. Ular to'g'orga yetib borguncha, tulki kiyikning qo'ynini yolg'on va'dalar bilan to'ldiribdi.

Nihoyat, ular g'orga yetib boribdilar. Kiyik, xuddi tulki aytganidek, boshini tik tutib, sher qulog'iga



королевству, тебе на уши. О таких вещах не говорят при всех, а на уши. А ты подумал, что он схватился за твои уши. Ты так не делай, если кто-то другой, кроме тебя, станет королём, он не даст никому жить в лесу. Пожалей тех бедных животных. Пойдём со мной. Не бойся, я же с тобой. Послушай, что хочет сказать лев, не убегай.

Обманув его во второй раз, лиса повела оленя ко льву. По дороге в пещеру, лиса надавала ему пустых обещаний. Наконец-то, они добрались до пещеры. Олень встал с высокоподнятой головой, как сказала ему лиса, и ждал, что ему

nima deyishini poylab turibdi. Sher esa, darhol, uni yiqitib, tilka-pora qilib, go'shtlarini, jigarini va suyaklarini ham yeya boshlabdi. Sher, kiyik go'shtini titib, bir narsa axtarayorganida, tulki, bir chetda yotgan, kiyik yuragini bildirmasdan olib, yeb qo'yibdi. Sher esa, hayrat bilan:

– Bu hayvonning yuragi bormi yo yo'qmi? – debdi. Tulki esa jilmayib:

– Eh, bunday hayvonda yurak nima qilsin? Yuragi ham, aqli ham yo'q. Agar yuragi bo'lsa, bu yerga o'z oyog'i bilan ham kelarmidi? Agar aqli bo'lsa, ikkinchi marta ham aldanarmidi? – debdi.

Darhaqiqat, tulkiga o'xshaganlar, nafaqat, bir hayvonni, balki barcha hayvonlarni ham, turli hiyla



скажет лев на уши. А лев сразу набросился на оленя, разорвал его на куски и стал кушать его мясо, печень и кости. Пока, лев искал что-то между останками мясо оленя, лиса тайком съела сердце, которое лежало в стороне. А лев с удивлением спросил:

– У этого животного нету сердца, что ли?

– Разве такое животное имеет сердце? У него нет ни сердца, ни мозгов. Если бы у него было сердце, пришёл бы он сюда своими ногами? Если бы у него были мозги, он бы не попался на одну хитрость дважды. – улыбнулась лиса.

va nayranglar bilan aldashi turgan gap. Ularning soddaligidan foydalanib, jar yoqasiga olib kelib, unga qulatadi. Tulkilar, hatto, yolg'onni rost, to'g'ri narsani esa noto'g'ri qilib ko'rsatishdan ham qaytmaydilar. Shuning uchun, biror narsani eshitsu yoki unga aytilsa, uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aqlni ishlatib o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. Bu ham yolg'on gapirishi mumkin deb, o'ylab ko'rsa, kiyik kabi sherga yem bo'lmaydi. Lekin, yana ba'zilar kiyik kabi, boylik va mansabni qo'lga kiritaman deb, uning orqasidagi xavfu xatarni hisobga olmasdan zarar ko'radilar.



Действительно, такие как лиса могут обмануть не только одного, но и всех. Воспользовавшись простатой, они приводят их к оврагу и толкают. Такие как лиса могут показать неправду правдой и неправильное правильным. Поэтому, перед тем, как поверить кому-то и действовать, надо хорошенько подумать головой, и они не станут жертвой, как олень. Или, иначе, те, которые хотят приобрести власть и богатство, действуют, не подумав об опасностях.





## MUSHUK BILAN TULKI

**B**ir bor ekan, bir yo'q ekan. Bir mushuk bilan tulki bo'lgan ekan. Ular bir birlariga qo'shni ekanlar. Tulki juda maqtanchoq bo'lib, doim mushukni mazax qilar ekan. Kunlardan bir kuni, tulki mushukka shunday debdi:

– Bilaman, sichqon ovlashga juda ustasan.





## КОШКА И ЛИСА

**Ж**или были кошка и лиса. Они были соседями. Лиса была очень хвастливая, и постоянно высмеивалась над кошкой. Однажды, лиса сказала кошке:

— Я знаю, что ты лучше всех ловишь мышей. Но, кроме этого, что ты умеешь ещё делать?